QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI MINISTRLER KEŃESINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 20-avgust | 479-13-0-Q/25 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Qoraqalpog’iston Respublikasida jamoat transportiarida yo‘lkira tarif tizimını takomiiashtirish to‘g‘risida

Ózbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Shahar yulovchilar transporti tóǵrisidagi 419-1-sonli qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 – yil 16-fevraldagi “jamoat transport tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-59 sonli qarori, Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012–yil 17–sentyabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yólovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to’g’risida” 273-sonli qarorlari Moliya vazirligi, Transport vazirligi va Qoraqalpog’iston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va istemolchilar huquqlarni himoya qilish qómitasining takliflarini inobatga olib, shahar yólovchilar transportida yólovchilar tashish xizmatini uzluksiz va sifatli kórsatishini ta’minlash maqsadida shahar yólovchilar transportida yólovchilar tashish xizmati yangi tarif darajalarini belgilash yuzasidan Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog’iston Respublikasida shahar yólovchilar transportida yólovchilar tashish xizmatining bir martalik tarifi kuyidagicha belgilansin:

- shahar ichi yónaishli avtobus yónalishlarida yólovchilarni tashish xizmati cheklangan bir martalik tarif **naqd pulda** yo’l haqqi (QQS bilan) - 2600 (ikki ming olti yo’z) so’m;

- shahar ichi yónaishli avtobus transportida naqd pulsiz elektron shaklda tólangan tólovlar (*transport kartasi, avtomatlashtirilgan transport tólov tizimi operatori ATTO, masofadan tólash imkoniyatiga ega bank kartalar*) orqali bir nafar yólovchi uchun (QQS bilan) - 2000 (ikki ming) so‘m;

Yo‘lovchilarning umumiy foydalaniladigan transportda shahar yo‘nalishlarida cheklangan tarif rejalariga yurishlar sonidan kelib chiqib chegirmalar va imtiyozlar mazkur qarorning 1 ilovasiga muvofiq ATTO kartasidan foydalanuvchilar uchun mazkur qarorning 2 ilovasiga muvofiq rag’batlaniruvchi chegirmalar joriy etiladi.

-shahar ichi, shahar atrofi, tuman markaridan boshlanuvchi shaharlararo yo’nalishli taksi yo’nalishida 5 km gacha bir martalik yo’lovchilarni tashish xizmati

tarif (QQS bilan) 3000 so’m miqdorida belgilansin.

2. **Qoraqalpog’iston Respublikasi Transport vazirligiga:**

Qoraqalpoǵiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qumiytasi, Ichki ishlar vazirligi yo’l harakati xavfsizligi boshqarmasi va Davlat soliq boshqarmasi bilan birgalikda yulovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirish, tashuvchilar tomonidan litsenziya kartochkalariga ega avtotransport vositalarida xizmat kórsatishini, bunda yo’lovchi va yuk tashish, yongin hamda texnika xavfsizligiga rioya etilishini, shuningdek, tashuvlarni ruxsat beruvchi xujjatlarsiz amalga oshirish holatlarini aniqlash yuzasidan muntazam ravishda nazorat qilish;

Shahar yo’lovchilar transporti ish samaradorligini oshirish maqsadida ularda yo’lovchilar oqimini doimiy ravishda monitoring qilib borish, tasdiklangan harakat jadvallariga va harakatlanish oraliqlariga qat'iy rioya qilish hamda aholidan kelib tushgan murojaatlarni o’rganib chiqish va bartaraf qilish choralarini kórish;

Aholiga qulay sharoit yaratish maqsadida yónalishlarga avtobuslarni jalb qilish hamda ushbu avtobuslar va yónalishli taksilarning vaqt bilan harakatlanishini tashkil etish choralarini kórish;

Tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda avtobus va yónalishli taksilarning belgilangan yónalishlarda harakatlanishi va belgilangan tarifta aholiga xizmat kórsatishni kundalikli monitoring ótkazish yóli bilan nazorat qilish hamda aniqlangan qoida buzarliklar bóyicha belgilangan tartibda tegishli choralar kórib borish va Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga doimiy ma'lumot kiritib borish;

Ózbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpoǵiston Respublikasi hududiy boshqarmasi va Davlat soliq boshqarmasi bilan birgalikda xizmat kursatuvchi korxonalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harakatdagi tartibni “onlayn” real vaqt rejimida uzoqdan nazorat qilish (GPS) va shaxar yulovchi tashish transportini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish tizimlari qullanilishini tashkil qilish;

Davlat solik boshqarmasi bilan birgalikda xizmat kórsatuvchi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy va texnik kórsatkichlarini doimiy ravishda taxlil qilib borish topshirilsin.

3. Qoraqalpoǵiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 3-oktabrdagi “Shahar yólovchilar transportida yólovchilar tashish xizmati yangi tarifini qóllanish haqida”gi 327-13-0-Q/23-sonli qarori o’z kuchini yóqotgan deb hisoblansin.

4. Vazirlik va idoralar ózlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiklashtirsinlar.

5.Qoraqalpog’iston Respublikasi teleradiokompaniyasi hamda “Erkin Qaraqalpaqstan”, gazetasi muxarririyatiga shahar yólovchilar transportida yólovchilar tashish xizmati yangi tarifi miqdorlari tóg’risidagi ma'lumotlarni aholiga etkazish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirgan hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o’rinbosari T.Yusupov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi **F. Ermanov**

Qoraqalpog′iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2025-yil 20-avgustdagi
479-13-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Yo’lovchinig shahar yo’lovchilar transporti – avtobuslardan foydalanishlarida, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 9 – oktabrdagi 643 – sonli qroriga asosan qatnovlar soniga bog’liq holda belgilangan

TARIF REJALARINING NARXLARI

t/r	Tarif rejalarining nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni	Yangi taklif etilayotgan tariff rejalarining narxi QQS bilan, so’m
1	“A V” avtobus, elektobus – yo’lovchi uchun*	1	-	7000.0
		5	22	33 880.0
		7	-	46900.0
		10	44	67760.0
		15	66	101 640.0
		20	88	135 520.0
		30	130	200 200.0
		90	-	450 000.0
		180	-	810 000.0
		365	-	1 642 500.0
2	“N” avtobus, elektrobus – pensionerlar va nogironlar uchun **	1	-	4000.0
		5	22	16 940.0
		7	-	23 100.0
		10	44	33 880.0
		15	66	50 820.0
		20	88	67 760.0
		30	130	100 100.0
		90	-	270 000.0
		180	-	450 000.0
		365	-	912 500.0
3	“T” avtobus, elektrobus – talabalar uchun **	1	-	5000.0
		5	22	16 940.0
		7	-	23 100.0
		10	44	33 880.0
		15	66	50 820.0

		20	88	50 820.0
		30	130	100 100.0
		90	-	270 000.0
		180	-	450 000.0
		365	-	912 500.0
4	“B”bepul – O’zbekiston Respublikasining “Shahar yo’lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq trasnportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo’lgan shaxslar uchun	30	60	

Qoraqalpog′iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2025-yil 20-avgustdagi
479-13-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 – yil 16 – fevraldagi “Jamoat transportini isloh qilih to’g’risidag”gi PQ-59 sonli qaroriga asosan, yo’lovchilarning shahar yo’lovchilar transporti – avtobuslardan foydalanishlarida to’lovlar transport kartalari

orqali amalga oshirilganda almashish

TARIF REJALARINIG NARXLARI

T/R	Tarif rejalarining nomlanishi	Almashish turlari	Tarif rejaning narxi
1	1 soatlik A+A+A+A	Birinchi avtobusda to’lov QQS bilan	2000
		ikkinchi avtobusda to’lov QQS bilan	1000
		uchinchi va keying avtobuslarda to’lov	0

Izoh: *A avtobus;*

Avtobusning faqat old eshigidan chiqishga ruxsat etiladi.

Yo’lovchi birinchi transportga chiqishida to’lov qilingan vaqtdan boshlab hisob davri boshlanadi.